

ATHAM AMIN NEMUTLU

DUO TAQDIRNI O'ZGARTIRADI

**Bu roman bo'lib o'tgan voqeadan
ta'sirlangan holda yozilgan...**



DUO

TAQDIRNI O'ZGARTIRADI

ADHAM AMIN NEMUTLU



TOSHKENT - 2022

UO'K: 28:159.9
KBK: 86.38
N 44

Adham Amin Nemutlu

Duo taqdirni o'zgartiradi [Matn] / Adham Amin Nemutlu -
Toshkent: BEST-BOOK, 2022 - 224 b.

Bu roman hayotda bo'lib o'tgan voqeadan ta'sirlangan holda yozilgan... Inson taqdirida shunday bir burilish nuqtasi borki, ayni isyon qiladigan paytingda, ha, o'sha onda qisqagina bir duo bilan - aynan hovuchlaringda turgan mana shu ko'rinmas tilsim bilan - qadaring oqimini o'zgartirib yuborasan.

Tarjimon: Oybek Xaydarov

ISBN 978-9943-8250-8-6

© Adham Amin Nemutlu

© BEST BOOK, 2022

ADHAM AMIN NEMUTLU



ADHAM AMIN NEMUTLU



*Bu roman real voqeadan
ta'sirlangan holda yozilgan...*

Tayyormisiz? Unda boshladik...

QIYINCHILIKLARDAN HIMOYALOVCHI BESH QAL'A

Uyga kelsam, onam yig'layapti. Shoshib qoldim, to'g'risi, nima bo'lganini tushunolmadim. Endi undan ko'ngil so'rayman deb turgan edim hamki, eshik taqillab qoldi. Bu ovozi yuragim o'rtasidan o'q teshib o'tgandek, sarosimaga sotib qo'ydi meni. Chunki haqiqatan ham butun uyni qayg'u qoplab olgandi, bu anduh qon bosimimni oshira boshlagandi. "Ona, sizga nima bo'ldi?" deyolmay eshik tomon yugurishga majbar bo'ldim. Eshik tirqishidan qarasam, binomizga mas'ul qilib qo'yilgan kishi – hozir shunday nom berganmiz, avvallari eshikbon derdik – turibdi. Uning asl ismi Ahmad. Eshikni ochgim kelmay, onamning oldiga qaytib borishni xohladim, ammo ha deb taqillayvergach, ortga qaytib, eshikni ochdim.

Ahmad aka odamga hayoli boqadigan, o'z fikrini tushuntirib berishda qiynaladigan, soddagina, ko'ngli ochiq kishi edi. Hozir ham siniq bir ovozda:

"Salomatmisan, polvon?" dedi. Aslida, o'sha paytda kayfiyatim rasvo edi. ishqilib, ichkaridan yig'i ovozi eshitilmasin, deya ich-ichimdan duo qilib turarkanman: "Shukr, aka, yaxshiman, qani marhamat... Nima bo'ldi o'zi, shoshib turibsizmi?" dedim. Bu gapimni eshitib, Ahmad akaning ovozi yanada siniqlashdi va:

"Haligi, nima desam ekan, elektr tokini uzib qo'yish uchun kelishgan ekan... menga uchrashdi, pastda kutishyapti", dedi.

Bu gapni eshitib nima deyishimni bilolmay qoldim. Endi yigirma ikki yoshni qoralagan, shoshqaloq, aqldan ko'ra hissiyotlarga ko'proq yo'l beradigan bola edim o'sha paytlar. Hayot tajribamga ko'ra tengdoshlarimdan biroz oldinroqda bo'lsam ham, miyamning yoshlik tomirlari shoshqaloqlik bilan urardi. Shuning uchun ba'zida vaziyatni to'g'ri bahololmay qolardim. Ammo hayot o'rgatadigan narsalarning yosh va bilimga umuman aloqasi yo'q ekan. Hayot sirlarini boshlang'ich sinfda uncha-muncha o'rgatgan bo'lishdi. Ammo u o'qish orqali emas, tajriba vositasida o'rganilarkan. Mazkur "dars"dan ham kimdir a'lo, yana kimdir esa yomon baho olarkan. Ushbu shafqatsiz "fan"ning ikkichilaridan ekanimni o'sha kuni anglab yetdim...

O'smirlikgimdan o'rtoqlarimdan ajralib turardim. Ya'ni biroz qiziqqonroq litsey talabasi edim. Ochi'g'ini aytsam, urush-janjalgaga o'ch edim. "Litsey paytida to'g'ri yuradigan bola bo'ladimi o'zi?" deyishingiz mumkin. Ammo mening bu fe'lim biroz boshqacharoq edi. Militsiya idoralari, kasalxonalar, tezyordamlar, bezorilarni bosib olib ketishadigan maxsus mashinalar degandek... Xullas, ko'rmagan narsam, totmagan hayot "masallig'"im qolmadi. Oxiri bosilib qoldim. "Qilgan ishlaringdan pushaymonmisan, yo'qsa?" deb so'rasangiz, pushaymon emasman.

Fikrimcha, hayot ilmi bilimlarning eng zo'ri bo'lib u o'qish bilan emas, tajriba vositasida o'rganiladi. Men ham devorlarga boshim urila-urila o'rgandim buni, afsusda emasman, ammo o'zini nazorat qilolmaydigan

darajada jahldor edim – ana shunga achinaman. Hech narsaga toqati yo‘q, sabrsiz yigitlar sirasiga kirardim. Bu kamchiligimni tuzatishim, sabr va irodali bo‘lishim kerak edi. Buni hayot menga qiyinchilik bilan oson tushuntirib qo‘yishini bilardim.

Ha mayli, mavzumizdan chalg‘imaylik, do‘stim, hali o‘zim haqimda ko‘p-ko‘p so‘zlab beraman senga...

“Xo‘sh, shunga nima bo‘libdi, Ahmad aka?” deb so‘radim. Ko‘zlarimda yosh aylana boshladi. Onamni yig‘latgan narsa nima ekani ichimni kemirib turgan paytda elektr-pelektri bilan ishim yo‘q edi. Ahmad aka yana siniq ovozda: “Bilaman, hammasini tushunib turibman... Kel, pastga tushib gaplashib olaylik”, dedi.

Men: “Ahmad aka, siz tushavering, ortingizdan tezda yetib olaman”, deya eshikni chaqqonlik bilan yopdim-u, vajohatla onamning oldiga shoshdim. “Onajon, sizga nima bo‘ldi?” deb so‘radim, ammo u javob bermasdan nuqul yig‘lardi. Xullas, o‘sha holatni anglatish ham mushkul hozir. Uyda mendan boshqasi yo‘q ustiga-ustak: ukam harbiy xizmatda, opamni uzatganmiz, uyda otam, onam va men turamiz...

Ha, aytgancha, otam degandek, otam qaerda ekan o‘zi? Chunki u hozir ishsiz yuribdi. Doim uyda ediku. Oldingi turar joyimizdan ancha uzoqqa ko‘chib ketganimiz sababli o‘sha tomonlardagi qadrdon choyxonasiga borishga ham hafsala qilmasdi uncha-munchaga. Albatta, borolmaydi-da.

Ishsiz yurgani bois cho‘ntagida sariq chaqa ham yo‘q bo‘lsa. Shuning uchun ham to‘rt oydan beri ijara haqi berilmagan, kommunal to‘lovlar masalasi hal qilinmagan, gaz uzib qo‘yilgan... Eh, do‘stim, hech nar-

sadan xabaring yo'q! Onam biroz o'ziga keldi shekilli: "Otang ketdi, o'g'lim", dedi. Bu gapdan hech narsa anglamadim. Chunki otamning uydan chiqishi oddiy hol bo'lib qolgandi. Yoshligimda ham ketardi, katta bo'lganimda ham shu ahvol. Xullas, qachon qarasang ketgani-ketgan. "Axir qayerga ketdi, ona, nimga yig'layapsiz?" deb so'rasam, nuqul: "Ketdi", deyotgandi. Nihoyat, "Jaketini ustiga ildi-yu, ketdi", deganidan keyin tushunib yetdim hammasini...

Ha, to'g'ri fahmlab turibsiz, otam bizni butunlay tashlab ketgandi. Ammo hozir buni o'ylashga-da kuchim yetmayotgandi. "Ahmad aka elektr tokini uzgani kelganlar bilan birga pastda kutyapti, oldilariga tushmasam bo'lmaydi, ona", degan edim: "Ertalab gazni uzib qo'yishgan edi, o'g'lim", dedi onam.

Uy ichida bir yo'lak bo'ladi bilsangiz, yotoqxonadan eshikka olib chiqadigan. Ana shu yo'lakda hushimdan ketib qolishni istadim o'sha onda. Chunki bu muammolar qarshisida chorasiz holda nima qilishimni bilmay turardim. To'g'ri, shu yoshgacha ham ko'p ko'rgiliklar o'tdi boshimdan. G'am-alam nima ekanini yaxshi bilardim, ammo bunaqangi masalada mas'uliyatni bo'yniga olish nimaligidan xabarsiz edim, ochig'i. Yigirma ikki yoshimda ijara haqi, elektr toki, gaz, uy va oila nimaligini bilmagancha eshikdan chiqib, pastga tushib borayotgandim. Ahmad aka kelganlar bilan gaplashib, biz uchun yana besh kun muhlat so'rabdi. Tushsam, kelganlar, allaqachon, ketib bo'lgan ekan. Yoniga borarkanman, Ahmad aka bir dona sigareta uzatdi va: "Kel, kel, arslonim, hal qildim, ammo bor-yo'g'i besh kunga", dedi kulgancha, o'sha siniq, bizga foydasi tekkanidan xursand bo'lgan

ovozda. "Dom"imiz kattalari, xususan, Ahmad aka va qo'shnilar otamning qiliqlarini qancha tanqid qilsalar-da, bizni yaxshi ko'rishardi. Sigaretani tutatib cheka boshladim. Shu paytda Ahmad aka ham ma'ruzotini boshlab: "Ertalab gazni uzib ketishdi, xabaring bormi?" deb so'radi. "Onam boyagina aytdi, aka", dedim. "Gazni uzib ketishlariga qarshilik qilolmadim. Boisi yo'q edim", dedi Ahmat aka. Men esa: "Qo'yavering, aka, hechqisi yo'q", dedim g'irt "ko'cha" bolalar gapiradigan ohangda va biroz isyonkor tarzda. Hozir mazkur satrlarni o'qiyotgan va "Bu qanday javob bo'ldi?" deyotgan o'quvchilarimga aytamanki: "O'sha vaziyatda mening o'rnimga o'zingizni qo'yib ko'ring va men bo'lsam, nima qilgan bo'lardim, deya so'rang", deyman. Ana o'shanday bir javobda, xullas...

"Menga qara, o'g'lim, qo'limizdan keladigan biror ish bo'lsa aytaver, bu vaziyatda bunaqasi ketmaydi", deya gapida davom etdi Ahmad aka. Uning gaplarida jon bor edi. Chunki o'tgan hafta ham uy egasi eshik qoqib: "Yo pulini to'lab qo'ying, yoki uyimni bo'shating, axir to'rt oydan beri bir chaqa ham berganingiz yo'q", dedi. Ochig'i, to'rt oydan beri ijara haqi to'lanmaganini biz ham uning og'zidan eshitib turgandik.

Sababi otam to'lab turibdi, deb o'ylagandik-da. Ammo bunday emas ekan, uy egasi eshik qoqqandagina angladik barini. Hali ham baraka topsin shu odam, naq to'rt oydan beri sabr qilib kelarkan. Faqat qo'ng'iroq qilganda otam ko'tarmagani uchun majburan oldimizga chiqibdi. Bunga o'xshash kunlar oldin ham boshimizdan o'tgan bo'lsa-da, oxirgisi ulardan farqli edi. Negaki oilamiz tarqalib ketgandi. Ya'ni otam

bizni tashlab ketgan, ukam harbiy xizmatda, yaqindagina opamni uzatgandik. Ochig'i, opamning to'yi uchun olgan qarzlirimizni ham to'lay olmagandik hali.

Shunaqa... Otam bu safar jiddiy ma'noda ketib qoldi. Chunki onam bizga qarashmayapti, o'z holimizga tashlab qo'ydi, deya advokatga murojaat qilib, otamning ustidan arz qilgandi va suddan chaqiruv qog'ozi kelgandi. Bu qog'ozni ko'rib g'azablangan otam ustiga jaketini ilib, ketib yuborgan ekan. U bilan ko'pdan beri oramiz yaxshi emasdi. Xalq orasida menga juda ham yoqadigan bir maqol bor: "Bir otaning farzandiga qiladigan eng katta yaxshiligi uning onasini ardoqlamog'idir". Otam onamga yaxshi muomala qilmasdi. To'g'ri, inson zoti borki xato qiladi, aybsiz bandda yo'q. Ammo padarimning xatolari haddan ziyod edi. Boshidan o'tganlarni anglashga urinardim, kamchiliklarini takrorlamaslikka tirishardim, ammo tan olib aytamanki, ko'p jihatlarim unga tortgandi: jahldor, osiy va sabrsiz bola edim. O'sha yillarda otamning "kopiyasi" edim desam xato bo'lmaydi...

Otamning hayoti ham oson kechmagan edi. Boylikdan kambag'allik botqog'iga botib qolgandi.

Kimlardir "Ayb o'zlarida", deydi, kimlardir "Orqoldilariga qarab pul sarflashlari kerak edi", deydi. Kimlardir "Ha endi taqdir-da", deydi... Men ana o'sha taqdir deganlardanman.

Agar inson taqdiri yaxshi o'zandan oqib turgan paytda o'z xatolari bilan uning yomon tarafga burilishiga sabab bo'lsa bu – hayotdan shapaloq yegach, isyon qilish o'rniga Allohga yanada yaqinlashishi kerakligini ko'rsatadi.

Mavlono (Jaloliddin Rumiy) deydiki: "Chorasizlik Allohdan kelgan eng xayrli ishoratdir. U duo qilish

payti yetganini ko'rsatadi". Dunyo ko'zingga tor ko'ringan paytlarda, ya'ni hamma balo ustma-ust bo'lib kelganda, qochadigan joy topolmay qolganingda, na soyaboning, na panalaydigan biror eshiging bo'lmaganda haligi dard yomg'iri ostida ivib ketasan va shunchalar tushkunlikka tushasanki, yomg'irdan yig'ilgan suvda o'zingni g'arq etasan, o'lmoqdan beri bo'lasan... Mana shunday vaziyatda isyon o'rniga duo qilib, o'zingdan ham og'ir ahvolda bo'lganlarni o'ylab, ya'ni birozgina yaxshi kunlaringni eslasang, o'zingga yanada kuch to'plagan holda qiyinchiliklarni yengib o'ta olasan.

Mayli, endi Ahmat aka masalasiga qaytaylik.

"Nima ham qilardik, aka, shukrki hayotmiz, sog'ligimizda ham muammo yo'q, alhamdulillah. Oyoq-qo'lim but, bermalol mehnat qila olaman", dedim-u, ammo ishlagan joyimdan olayotgan maoshim ijaraga yetsinmi, sigaretagami, yo'lkiramgami, yoki ukamning xarajatlarigami...

O'sha paytda ko'z oldimdan to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlar, yig'ilib qolgan ijara haqi, oziq-ovqat xarajatlari, bozor-mozor qilish degandek – hammasi o'tdi... Yana onam va opamning qarzlari kino tasmaidek shunday o'tdi-shunday o'tdi, ta'riflashga til ojiz. Odamlar: "Boshimdan sovuq suv quyib yuborgandek bo'ldi", desa ishonmasdim. Boshga tushganni ko'z ko'rar ekan. To'kilgan suvning sovuqligini boshingdan tirnoqlaringgacha his etarkansan.

Shu payt Ahmad aka: "Nimalarni o'ylab qolding, hammasi joyidami?" dedi. "Yaxshiman, yaxshiman", dedim. "Onamning oldiga chiqishim kerak, aka, rahmat sizga, ko'rishguncha", deya uy tomon shoshildim. Qarasam, onam yana bir burchakkinaga biqinib ol-

gan, qo'lida tasbeh, to'xtamay zikr qilyapti. Uning odati shunaqa o'zi: qachon ko'ngli og'risa, g'am cheksa, avval yig'laydi, keyin esa tasbeh o'gir ishga tushadi. Chunki u hamma narsa Allohdan ekanini yaxshi tushunar, buni menga ham tez-tez eslatib turardi.

Bolalar uyda o'zi uchun bir hayot qurib, shunga ko'ra yashaydi. Mening hayotim asosi esa onam edi. Har on o'z-o'zimga shunday derdim: "Otamdek bo'lmayman! To'g'risi, katta gapirolmayman-u, unga o'xshashni umuman xohlamayman... Yomon xislatlari uchun emas, onajonimga ko'p ozor bergani bois, uni xafa qilgani sababli... Zinhor-bazinhor unga o'xshashni istamayman".

Onam zikr qilib bo'lgach, "O'g'lim", deya chaqirdi. O'sha paytda oshxonada tamaki chekib o'tirgandim, ovozi eshitib, qo'limdagini darhol tashlab yoniga bordim. "Qani, dardingizni ayting endi o'g'lingizga, ichingizga yutmang", dedim. U yig'idan beriroq bir alpozda: "Otang sudga chaqiruv qog'ozi kelgani ko'rib ketib qoldi. Uni yaxshi bilaman, endi aslo qaytmaydi", dedi. Ha, rostdan ham shunday. Otam juda ham qaysar odam. Shuning uchun ham qaytmaydi. Onam bilib aytgandi.

"Qo'limizdan nima ham kelardi, onajon... Endi ajrashasizlarmi? Agar shunday bo'lsa, shuni bilingki, men doim yoningizdaman. Birga ishlab, hamma muammolarni hal qilamiz, tashvishlanmang. Kommunal to'lovlarni menga qo'yib bering, hammasini to'layman", dedim va yugurib borib, to'lov qog'ozlarini olib kelib unga ko'rsatdim va: "Birozdan keyin ko'rasiz qanday hal qilishimni", deya tashqariga otildim. Onam: "Qayoqqa ketyapsan, o'g'lim?!" deganda zinalardan tushib borayotgan edim...

Ochig'i, nima qilishni bilmasdim. Shunday bo'lsa-da uydan chiqib bo'lgandim. Ammo nimaga ishonib bunay qilganimni o'zim ham bilmayman. Binomiz eshigidan chiqishim bilan bu to'lovlar qarshisida chorasiz ekanimni tushungandim, chunki maoshimni olishimga naq o'n kun bor edi. Xo'sh, pulimni olganimda ham nima o'zgarardi? U nimaga ham yetardi deysiz? Muammolarning kattasi uy egasi bilan bog'liq masala edi.

Ahmad akaning uyiga borib eshigini taqillatdim. "Ahmat aka, uyimiz egasining raqami menda yo'q edi, bera olasizmi?" dedim. Raqamini olib darhol sim qoqdim. Qadrdon telefonim bilan o'tkazayotgan oxirgi daqiqalarim edi. U bilan vidolashib, zarur bo'lgan narsani qilishim kerak edi. Uy egasiga qo'ng'iroq qilgan edim: "Assalomu alaykum", degan ovoz keldi.

"Va alaykum assalom, Arslonman, yaxshimisiz", dedim. U darhol tanidi. "Tinchlikmi, biror muammo yo'qdir, inshaalloh?" deya so'radi. Bu gapini eshitib uyalib ketdim. Chunki qarzdor bizmiz-u, u yana holimizdan tashvish chekib, tinchlikmi, deb so'rayapti.

Alloh hammaga mana shunday insofli kishilarni ro'baro' qilsin deya davom etay...

Vaziyatni unga obdan tushuntirdim: qiynalib qolganimizni, opamni yaqindagina uzatganimizni, ukamning harbiy xizmatda ekanini, otamning ketib qolgani... U hech narsa demadi. "Ikki oylik ijara haqini birdaniga to'layman, ammo birozgina sabr qilib turing, haqqingizga zinhor xiyonat qilmaymiz, bir yordam qiling endi", dedim. U rozi bo'ldi. "Qoqilmaydigan faqat Alloh, siqilma, bo'lib turadi bunaqa ishlar", deya biroz tasalli bergan bo'ldi, baraka topgur. Ammo o'sha

DUO TAQDIRNI O'ZGARITIRADI

paytda miyam bunaga o'gitlarni tushunadigan, ko'tara oladigan holda emasdi. Aslida, boshimni yerdan ham ko'tara olmay qolgandim. Go'yo osmoni falakdan arazlagandek edim.

Xo'sh, ikki oylik ijara haqini Arslon qayerdan topardi? Axir aytdim-ku, telefonim bilan so'nggi bor diydorlashib turibman deb... O'sha jon-dildan yaxshi ko'radigan, qo'ldan qo'ymaydigan, kreditlari hamon to'lab bo'linmagan jonajon telefonimni sotishga ahd qilgandim...

Yashaydigan binomizdan biroz narida doim boradiganim bir do'kon bor bo'lib, uning egasi do'stim edi. Fe'li yomon emasdi-yu, dunyoqarashi mendan biroz farq qilardi. Shuning uchun yaxshi chiqishsak-da, ba'zida kelisholmay ham qolardik.

*Duo qilishni o'zingga ko'p ko'rma.
Bilginki, taqdiring o'z qo'lingdadir.
Qo'llaringni osmonga cho'za,
tilaklaringni bir boshidan aytaver...
Rabbim xohlasa hamma narsa
bir onda o'zgaradi-qoladi, unutma...*



Kommunal to'lovlar qog'ozini ko'tarib - xayolimda ijara haqi - do'kondan ichkari kirdim. Gapirgan ilk jumlam "Telefonni sotishim kerak, birodar", deyish bo'ldi. O'rtog'im: "Nima bo'ldi axir, do'stim, kirar-kirmas telefoningni sotishdan so'z boshlading?" deb so'radi. "Qo'yaver, do'stim, aytarli hech gap yo'q", dedim. "Pul zarur bo'lib qoldi, tezroq sotishim kerak, qanchaga ketarkin..." hokazo-hokazo derkanman, telefonni o'zi sotib oldi. Menikiga o'xshash telefon olishni o'ylab yurardi o'zi. Bundan tashqari, sigara va nondan qarzim ham bor edi.

"Qarzlaringni buning narxidan ayirib tashlab, keyin pulini beraman", deganda yo'q deyolmadim. Qolgan pulni oldim u yerda o'tiraverdim. Chunki pul faqat ikki oylik ijara haqini to'lashga yetardi, xolos. Uyegasiga ikki oylikni to'layman deb va'da berib qo'yganman. Ammo kommunal to'lovlar degan "bosh og'rig'i" ham bor edi. Boshqalar bilan aloqa qilib turish uchun bundayroq bo'lsa-da telefon sotib olishim lozim edi... Yana aloqa qilish deganda sayr-u sayohat-u ko'chalarda daydish uchun aytyapti, shekilli, deb o'ylamang. Aksincha, qarz so'rash uchun kerak edi bu matax. Sababi, fan-texnologiyalar davrida yashayapmiz. Kim bilandir gaplashish uchun xat yozib o'tirmayman-ku. Shuning uchun o'rtog'imga: "Oshna, eski telefoningni qisqa muddatga berib turolmaysanmi, yangisini olgandan so'ng qaytaraman", dedim. U "Bo'pti, ola qol", deya telefonini berdi. Sim kartamni unga qo'ydim. Telefonni endi ishga tushirgan edim hamki, ukam qo'ng'iroq qilib qoldi...

"Oh, ukajon, oh, ayni vaqtida qo'ng'iroq qilding. To'g'ri, hozir harbiy xizmatdasan, ammo menga juda ham keraksan shu onlarda. Otim Arslonku-ya, biroq haqiqiy arslon sensan... Nima qilishimni bilmay

qoldim, sen mening qo'l-oyog'im eding, kel endi yonimga..." deymadim. Inimga yaxshi ko'rishimni ha deganda aytoymasdim. Uni juda ham yaxshi ko'rardim, ammo buni qanday ifodalashni bilmasdim. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'ramizda masofa bor edi. U esa doim meni hurmat qilardi. O'zimning arslon ukam!..

Telefonni ko'tardim. Tabiiyki, hech qanday sir bermagan holda gaplasha ketdim. "Ahvoling yaxshimi, qiyinchiliklar yo'qmi, biror narsa kerak emasmi", deya so'rarkanman, bo'g'zimga nimadir tiqilgandek bo'ldi. Chunki: "Aka, menga pul kerak", desa nima qilaman, deb tashvishga tushdim-da. Biroq hech narsani sezdirmagan holda suhbatda davom etdim, uning javobi taxmin qilganimdek bo'ldi: "Aka, bir muniha pul jo'natasizmi menga", dedi. "Tushunarli, hal qilamiz", dedim-u, boshim qotdi. Chunki imkonim yo'q edi. Ammo buni aytmadim. Aytolmadim!

Boshimga shunday ish tushgandiki, hali uning mohiyatini ham anglab yetolmayotgandim. Ta'bir joiz bo'lsa, yigirma ikki yoshdayoq bir oilaning boshlig'i bo'lgandim.

Nima qilishni bilmagan holda bufetda angrayib o'tiraverdim. Bu orada o'rtog'im qahva damlab keldi. Qahvani ichib-ichib, qo'limdagi to'lov qog'ozlariga tikilib qolibman. Hatto menga gapirganda ham eshitmabman. Shu payt ich-ichimdan duo qildimki: "Allohim, menga shunday ko'p pul berki, bu to'lovlarni o'ylashimga ham hojat qolmasin" Mana shunday xayollar bilan o'tirganimda, "Arslon, Arslon, hey arslon!" degan ovozni eshitib, cho'chib tushdim. Xuddi uyqudan alaxsirab turgandek bo'ldim. "Nima bo'ldi, tinchlikmi?" degan edim, u ham menga xuddi shu savolni berdi: "Aslida, senga nima bo'ldi, do'stim? Besh daqi-

qadan beri chaqiraman, go'yo oyparastlardek ko'zingni ochib turibsan-u, hech narsani eshitmayapmsan. Gapirsang-chi axir, yo biror darding bormi?" dedi. "Haliroq batafsil so'zlab beraman, mayli, ko'rishguncha", deya tashqari chiqdim.

"Axir qayerga borasan, Arslon?" deydigan odam yo'q orqamdan. Boradigan joyim yo'q, aksiga olib xayolimga hech narsa kelmayapti. Ammo darhol uy egasiga qo'ng'iroq qilishim zarur edi.

Raqamini terdim, go'shakni oldim. "Aka, ikki oylik ijara haqini hal qildim, qayerdasiz, pulni berib o'taman", dedim. "Yo'q-yo'q, kelishingga hojat yo'q. Yaxshisi men senga hisob raqamimni yuboraman, o'shanga tashlab qo'yarsan", dedi. Men bo'пти deb, telefonni o'chirdim.

Hisob raqami yozilgan telefonxat keldi. "Klik"dan pul o'tkazishga kirishdim. Endi o'tkazish amaliyotini tugallayotganimda, bank yechib oladigan qo'shimcha pulni ko'rib, niyatimdan qaytdim. Yana uy egasiga qo'ng'iroq qildim. Chunki borib-kelish bundan naq ikki baravar arzonga tushardi. O'sha paytda aqlim shunchalar aniq hisoblayotgandiki, hatto bitta nonning pulini ham iqtisod qilishga majbur ekanimni anglab turardim. "Yaxshisi oldingizga boraman pulni bergani", dedim.

Uning manzilini olib, yo'lga tushdim. Borib pulni topshirdim. Uy egasi ijara haqini ola turib: "Bunchalik qisqa vaqtda qanday topding buncha mablag'ni? Har holda otang bermagani aniq", dedi. Yana noto'g'ri tushunmasin deya telefonimni sotganimni aytolmadim. "Biroz yig'ib qo'yganim bor edi", dedim. Ammo avzoyimdan hammasini tushundi, shekilli: "Yaxshisi bunday qilamiz..." dedi. "Sendan bir oyligini olib qolaman. Hozir pulga ko'pam zoriqib turganim yo'q. Ber-

gan bu pulingni esa oxirgi oyning ijarasi uchun deb hisoblaymiz. Oyoqqa turib olganingda birvarakayiga to'rt oyni beraverasan", dedi. Men yo'q dedim-u, biroq chin ko'ngildan aytmadim. Bu gapimni eshitgan uy egasi: "Menga qara, Arslon, meni akang deb hisobla. Shuni xohlayapman", dedi va bergan pulimning yarmini qaytardi.

Uning oldidan chiqqanimda ancha xotirjam edim. "O'ziga ming qatla shukr", dedim ichimda, "Ming qatla shukr..." Mikroavtobus bekatiga qarab borarkanman, yana o'z-o'zinga: "Alloh hech kimga ko'tarolmaydigan darajada sinov yubormaydi, Arslon. Sen bu muam-molardan chiqib keta olasan, chunki Rabbing yengib o'ta olishingni bilgani bois shu taqdirni ravo ko'rdi.

Nima, U Zotdan ham donomisan? Ko'pam o'ylay-verma", deya gapirayotgandim. Mana shu fikrimga mos tushadigan bir hissa kelib qoldi xayolimga...

Hazrati Mavlono (Jaloliddin Rumi) kunlarning birida uyiga kelib, o'g'lini xomush holda ko'rib, sababini so'rab-di. O'g'li: "Hech narsa bo'lgani yo'q", deb javob beribdi. Hazrati Mavlono tashqariga chiqibdi. Eshik tepasida osilgan bo'ri terisiga ko'zi tushibdi. Haligi terini olib ustiga kiyibdi va qo'lini osmonga ko'tarib, xuddi bo'rilardek uliy boshlabdi. O'g'li otasining bu qilg'ini ko'rib qah-qah urib kulishga tushibdi. Hazrati Mavlono: "Ko'rdingmi, o'g'lim", debdi. "Dunyo dardlari ham mana shunday. Bo'ri, aslida, qo'rqinchli jonivor, ammo sen bu po'stin ostida otang borligini bilganing uchun qo'rqmading va kulding. Xuddi shunga o'xshab, dardlaring ortida Rabbing turganini bil va Unga ishon!.."

Mikroavtobusga chiqmasdan burun ukamga pul jo'natib yuborishim kerak edi. Shu maqsadda bankka

borib bu ishni hal qildim. Ammo bu mablag' bir haftaga yo yetadi, yo yetmaydi. Bunga aminman. Ko'p yeb ichishi yoki me'yoridan ortiq sarflagani uchun emas harbiy xizmatda sarf-xarajatlari ko'pligi bois. Ha mayli... Xullas, aylanib-aylanib bekatga bordim. Miyan shunchalar o'y-fikrga to'la ediki, tasvirlab berishga tilim lol. Ishonasizmi, mikroavtobusda nimalarni o'ylat kelganimni ham eslolmayman. Ammo shuni bilamanki ko'nglim xotirjam edi. Boisi ijara haqini va ukam masalasini hal etgandim-da. Endigi navbat kommunal to'lovlarga kelgandi. Gaz uzib qo'yilgan, elektr yaqinda o'chadi. Ishonsangiz, ularning qanday holatda ekanini ham bilmayman... Balki, siz hozir: "Hey birodar, umuman qavm-qarindoshing yordam berib turadigan do'st-birodarlaring yo'qmi?" deb o'ylayotgandirsiz. To'g'ri, haqlisiz, bunday fikrlar xayolingizga kelishi ham tabiiy hol. Ota taraf qarindoshlar bilan oramiz doimo haminqadar bo'lib kelgan. Ular hech qachon og'ir kunlarda yonimizda bo'lmaganlar. Sizningcha otam ketganini bilmadilar deysizmi? Albatta bilishgan. Ammo shu paytgacha hatto qo'ng'iroq qilib bir og'ir hol so'rashga yarashmadi. Onamga qo'ng'iroq qildilarmi-yo'qmi bilmayman. Uyga borganda so'rayman bu haqida. Biroq hech kim sim qoqmaganiga aminman. Ona tarafdan qarindoshlarimiz esa o'z vaqtida bizga ko'p yordam berdi. Baxtga qarshi ulardan hozir hech kim bizga ko'maklasholmaydi. Ularning, deyarli, barchasi moddiy jihatdan bizdan ko'ra yaxshiroq ahvolda emasdi.

Do'stlarimga keladigan bo'lsam... Yordam so'raydigan ikkita yaqin og'aynim bor edi: Husayn va Serhat. Husaynning otasi kechagina vafot etdi. Shuning uchun undan ko'mak so'rab qo'ng'iroq qilolmasdim. Zotan,

ularning ham ahvoli yaxshi emasdi. Otasi o'lgandan so'ng oila anchagina qarzga botib qolgandi. Husayn yagona o'g'il bo'lgani bols onasiga g'amxo'rlik qilish, oilaning tirikchiligini o'tkazish uning bo'ynida edi... Aslida, bunday og'ir paytlarda uning yonida bo'lishim kerak edi, lekin o'zim bilan o'zim o'ralashib qolib, bunga ham imkon topolmayotgandim.

Tushkunlikka tushgan kezlarim o'rtog'imning dardi esimdan chiqib qolardi. To'g'ri, bu do'stning ishi emas, biroq o'sha paytlarda qo'limdan keladigan yagona narsa unga har kuni sim qoqib: "Ahvoling qanday, tuzukmisan? Mendan biror yordam kerakmasmi, biror xizmat bo'lsa aytaver", deya ko'ngil so'rash edi. Uning yonida turib dardiga o'rtoq bo'lishni xohlayotganimni Husayn ham bilardi, aslida. Ichimni ham, tashimni ham, hamma narsamni biladigan do'stinga dardi hol qilish niyatim yo'q edi. Ya'ni bunday ish bilan uning siqilgan yuragini battar qiynashni istamasdim... Ikkinchi do'stim Serhat aka esa endigina uylangan, ustiga-ustak, to'yiga juda ham yaqin qolganda ishdan bo'shatilgandi. Boshqa bir hamkasbining xatosi uning bo'yniga tushib, ishidan ayrilgandi. Undan nimani ham so'rardim. Axir endi ishsiz bir odam bo'lsa. Qanday qilib uylanganidan ham xabarim bor edi: qarz-qavola qilib... To'yida tushgan to'yonalar qarzini uzishga yetishi amrimahol.

Eng yaqin do'stlarimdan bo'lgan bu insonning hatto to'yiga ham borolmadim. U menga shunchalar ko'p yaxshilik qilgandiki... to'yonaga hech vaqo berolmasligim uchun uyalganimdan to'yiga bormadim. Borsam-da, to'yona degan narsani xayoliga keltirmasligini bilardim, ammo baribir jur'at qilolmadim.

Bilasizmi, kiyib yurgan poyabzalimni ko'pdan beri almashtimaganim bois: "Oyoqlaring hidlanib qo'ladi axir bu eski botinkada", deya maoshidan ozozdan ajratib yig'ib, kaminani poyabzalli qilgandi. O'sha yaxshiligi sira esimdan chiqmaydi. Bundan boshqa ham ko'plab mehnati singgan menga. Ammo shunisidan juda ta'sirlangandim. Baxt oqshomida unga arzimagan bo'lsa-da biror hadiya ololmaganim, ukalo'laroq kaminaga juda og'ir edi...

Xullas, o'sha damlarda yordam so'raydigan hech kimim yo'q edi. Faqatgina boshqalardan qo'ng'iroq kutardim. Birov telefon qilib ko'ngil so'rar deya. Ammo qaerda deysiz...

Hayot qozonida yaxshilab pishish uchun ham hech kimdan yordam so'ramasligim, mana shunday og'ir kunlarni o'z kuchim bilan yengib o'tishim shart edi. Uy tomon yo'l oldim. Onamga aytadigan xushxabarim borligi uchun boshim osmonga edi. Uyga kirishim bilan validamdan suyunchi oldim: "Ona, ijara masalasini hal qildim, bu yog'iga uni o'ylab g'am yemang. Hatto ukamga ham pul jo'natdim..."

Onam buni eshitib hatto kulimsirab ham qo'yamadim. Bu holini tushunmadim. "Ona, sizga nima bo'ldi tag'in? Gapimni eshitmayapsizmi?" deb so'radim. "O'g'lim, suv ham to'xtab qoldi", dedi. Suv hisoblagichi zamonaviy edi. Ya'ni puli tugasa bas, avtomat ravishda tarmoqdan uzilardi. Hisoblagichning maxsus kartasi bor bo'lib, o'shanga pul tashlanardi. Suv o'chib qolganda hisoblagichning orqasiga uni tekki-zib olinsa, yana bir muddat qarzga ishlardi. Ammo baxtga qarshi u ham tugagan ekan...

"Xafa bo'lmang, pulimiz bor", dedim. Ozroq qolgan pullarni chiqarib ko'rsatdim va qo'shib qo'ydim:

Tashvishlanmang, o'n kun ichida maoshim ham chiqadi". "O'g'lim, hecham xafa bo'lma", dedi u. "Seni yaxshi bilaman, bunday qiyinchiliklarni o'zingga og'ir olasan. Ammo hayot ba'zan insonni mana shunday vaziyatlarga ham muhtalo etadi. Eng muhimi, peshonateri bilan pul topish, hech qachon uyatli ish qilma". Bu gapini-ku tushundim, biroq oxirida shunday deb qo'shib qo'ydi: "Ertadan farrosh bo'lib ishlay boshlayman. Bir dugonam bor edi, u orqali topdim buni".

Tashqaridan qaragan kishi uchun bu oddiy holdek ko'rinadi. Ha nima bo'libdi, tirikchilikning aybi bormi, halol ishlasa bo'ldi-da, deydi ko'pchilik. Boshqalar ham ishlab yuribdi-ku.

Bunday ishlarni mensimas ekan-da, deb o'ylamang yana. Aslo unday emas. Ammo insonning onasi, kap-katta o'g'li bo'la turib bu gapni aytib tursa, odamga qattiq botarkan. Yana takrorlayman: farroshlik ham bir kasb, uni nazarga ilmaslikka qanday haddim sig'sin. Biroq u onam axir...

Onam jamoat hojatxonalarini tozalaydigan farrosh bo'lib ishga kirgan, ertaga birinchi ish kuni edi. Uni bundan qaytarish uchun qo'limdan hech narsa kelmasdi. Hech narsa! "Xonamga qamalib oldim. Yotog'imdagi yostiq, qancha ko'z yosh to'kkanimni faqat u, Alloh va men bilamiz, xolos... Yig'lash aybmi?

Albatta, ayb emas. Ammo yigit kishining yig'lashi biroz qiyinroq ish. Har kimning yonida, har yerda ko'z yosh to'kolmaydi. Yigit kishi bunday qiliqni zaiflik deb baholaydi. Lekin o'rni kelganda yig'lashni shunchalar qoyillatadiki... O'rni kelganda ko'zlari namlanadi: sas-sadosiz, bir yostiqqa, bir devorga, bir uy burchagiga...

*Qalbing qancha sinsa, sinsin, mayli...
Shuni unutmaki, Alloh siniq qalblilar bilan
birgadir.*



Oradan biroz vaqt o'tgach, yana oyoqqa turdim va o'zimni qaytadan ruhlantira boshladim. "Qani bo'l, Ars-lon, axir isming Arslon-ku", dedim. Mana shu tarzda miyamda bir ko'tarinkilik ruhini hosil qilul va xonamdan chiqdim. "Gap tamom, ona", dedim, "Siz farrosh bo'lib hech qachon ishlamaysiz, o'zim hammasini hal qilaman. Faqat o'g'lingizga biroz vaqt bering.

Agar bajarolmasam, undan keyin mayli, ishlasangiz-ishlayvering". Bu gapni eshitgan onam: "Bo'pti", dedi. Ammo men ishga ketgandan keyin baribir hojatxona tozalashga ketibdi. Tabiiyki, buni anchadan keyin bildim. Onam, meni xafa qilmaslik uchun: "Xolangnikiga ketyapman, o'g'lim", "Biroz ayollar bilan dardlashib kelay", deb meni aldarkan.

Onamdan suv hisoblagichning kartasini oldim. Gaz va elektr tokining to'lov qog'ozlari shundoq ham o'zimda edi. Kech tushib qolgan bo'lsa-da, yeyish-ichish uchun uyda suv ham, non ham yo'q edi.

Do'konga borib, non va besh litr suv olib keldim. Ovqatlanib bo'lgach, onam o'z xonasiga, men o'z xonamga kirib ketdik. Onam: "Men xonamda biroz duo qilib keyin yotaman, sen borib uxlayver", dedi. Yotog'imga kirdim-u, ammo uyqu o'lgur ha deganda kela-vermadi. Ko'zim ketgan paytda soat uchlar bo'lib qolgandi, adashmasam.

Soat o'nlarda ishga otlandim, ketar chog'im, mikroavtobusda, haydovchidan mikroavtobuslar ko'proq qaerda yuvilishini so'radim. Chunki ularning har kuni yuvilishini bilib olgandim. U menga o'sha joyning manzilini berdi. Ishlayotgan savdo markazimga yaqin joy ekan. Bu tomoni ancha qulay chiqib qoldi. Xodimlar uchun tushgi ovqat vaqti bo'lgach, bundan

foydalanib u yerga yugurdim. Yayov yurganda o'n besh daqiqalik yo'l ekan. Bordim, ko'rishdim, kechki payt kelib bimalol mikroavtobuslarni yuvib pul ishlashning mumkin deyishdi.

Haftada uch kun soat o'nda ketib, oltida ishdan qaytaman. Aynan mana shu kunlarda borib mikroavtobus yuvadigan bo'ldim.

Yanada ko'proq mehnat qilishim, ko'proq pul topishim kerak edi. Masalan, o'sha kunlari ishdan soat oltida chiqishim sababli oltidan o'ngacha mikroavtobus yuvaman. Ammo u yerda asosiy ish kech soat o'ndan keyin boshlanarkan. Oltidan o'ngacha juda ham kam mikroavtobus kelarkan.

Shuning uchun mashina yuvuvchilikdan topgan pulim faqatgina bir oylik non va suvga ketadigan xarajatlarni qoplardi, xolos. Yoki ukamga harbiy xizmatda cho'ntak puli yarardi. Shunday bo'lsa-da ishlashga qaror qildim. Asosiy ish joyimda tumtayib yurishim sababli hamma savolga tutardi: "Nima bo'ldi, tinchlikmi?" deb. Biroq hech kimga nolishni xohlamasdim. Sababi ahvolimni bilsalar ham, tushunib yetadigan darajada emaslar deb o'ylardim. To'g'ri, hamkasblarim menga yordam berishi mumkin edi, ammo o'sha paytda xarajolimga boshqa bir fikr kelib qoldi: boshliqlar uchun keltirilgan sovg'alarni olib, sotish...

Menga ixlosi bor va kaminaga ishonadigan direktor yordamchilari bilan gaplashdim va bu ishga ko'ndirdim. Xullas, ular uchun keltirilgan sovg'alarni ulgurji shaklda sotadigan joylarga topshirib keladigan va buning uchun haq oladigan bo'ldim. Bir boshlig'imiz bilan kelishib, darhol ishni boshlab yuborishga ham ulgurdim.

Keladigan sovg'alarni kechki payt olib, ertasi kuni

ulgurji savdo bilan shug'ullanadigan savdogar yoniga boraman. Soat oltida ishdan chiqib, mikrovatobus yuvishga ketaman. Hatto yo'lda ham, yana nima qilishim mumkin ko'proq pul topish uchun, deb o'z-o'zimdan so'rayman. Nuqul xayolimga egri yo'llar keladi deng. Biroq bunday tirikchilik qilishni o'zimga ep ko'rmasdim. Nima bo'lganda ham bunday qilolmagan bo'lar-dim, fikrimcha. Tushunchalarimni va qalbmni pok saqlagan holda Allohdan hech qachon umid uzilmasligini eslayman. To'rt mucham sog' bo'lgani uchun shukr qilaman. Shuni bilamanki (onamdan o'rgangan-man), qing'ir ish qilish va jahlni jilovlay olmaslik, agar bozorda sotiladigan meva bo'lganda ularni hech kim olmasdi. Shuning uchun jahlimni jilovlashim, sabrli bo'lishim va noto'g'ri yo'llarga kirmasiligim kerak. Dorulamon damlar abadiy bo'lmaganidek, og'ir damlar ham umrning oxrigacha davom etmasligini bilaman.

Aslida, bunday ko'rgiliklarga tayyor ham emasdim o'zi. Bundan bir necha oy oldin qizlar ortidan yugurishdan charchamaydigan, bo'lar-bo'lmas ishlar qilib yurgan o'spirin edim. Shuning uchun bu yengil-yelpi hayotdan asl yigitlik sinovlariga o'tish oson bo'lmadi, bu yo'lda ko'p qoqilishim mumkin edi-yu, lekin yuqorida aytganimdek, Alloh hech bir bandasiga ko'tarolmaydigan sinov bermaydi...

O'sha sinov boshimga tushganda, avval-boshda xohlamagan bo'lsam-da, ba'zida bundan og'rinsam-da, hech qachon o'tirib qolmadim. "Nimaga axir?" deya taqdirimga isyon qilmadim. Chunki "Kuchli bo'lsam kerakki, bu dard yukini Alloh yelkamga yukladi. Balki, ukamga berganda ko'tarolmasdi, opamga bersa, u ham bardosh berolmasdi. Shuning uchun menga berdi", dedim va dardim shiddatining qattiq-

ligi bilan o'zimni ovutdim. "Alloh meni tanladi", dedim. Bu imtihondan to'g'ri, sog'-salomat va xato qilmagan holda o'tishim kerak edi. Aytayotganim shunday bir sinovki, do'stlar, ismi sharifing yozilgan, mavzu yozilgan, qiladigan ishlaring yozilgan, ammo sen ko'lmaysan, faqatgina ssnariy bo'yicha o'ynaysan. Biroq faqatgina o'zingga berilgan rolni to'g'ri ijro etsanggina murodingga yetasan.

To'g'ri yo'ldan toymagan holda hammasini yetgib o'tsa bo'ladi. Chunki og'ir kunlar insonlarni osonlikcha tuzoqqa tushirishi mumkin. Agar to'g'ri bo'lsa to'g'ri yursang, hatto pashsha uchganda qanotidan chiqqan ovozni ham eshitishing mumkin. Nima bo'lgan taqdirda ham inson o'zi uchun to'g'ri qaror qabul qilishi kerak. Chunki shundagina hamma narsa tamom bo'ldi deb o'ylagan paytlaringda hayotning bir chekkasidan tutib qola olasan.

To'g'ri, hayot yo'li murakkab, noni qattiq deymiz, ammo shuni ham doim esda tutaylik: Qiyin bo'lmasa, uning imtihonligi qoladimi? Xullas, mikroavtobus yuvishga bordim. Darhol ustimga maxsus kiyimini kiydim-u, ishni boshlab yubordim. Biroz oldinroq mashina yuvish uchun maxsus suv to'pponchasidan foydalangan edim. Shuning uchun uni ishlatish qiyin bo'lmadi. Ochig'i, mikroavtobusni yarqiratishtan yengil mashinalarni yuvishdan osonroq ekan. Har bir ulov boshiga haq olaman. Soat o'ngacha ko'proq mikroavtobus yuvishim kerak. Shuning uchun tez va chaqqon ishlashga tirishaman. Ishimni ko'rib u yerdagilar ham hayron qolishdi. Chunki burgadek chaqqon harakat qilayotgandim. "Nima uchun aynan o'ngacha?" deydigan bo'lsangiz, onam ishdan soat o'nda chiqadi-da.

Xavotir olmasin deya unga mikroavtobus yuvar-
 otganini aytmagandim. Soat to'qqiz yarimga yetar-
 mas tanamdan mador qurildi. To'g'ri, ishlashda
 avom etayotgandim, ammo bu ishni qilish katta kuch
 lab qillardim. Men mehnatga ancha xom edim shu bilan
 lrga a'zoyi badanini qaqshab og'riyotgandi. Kechasi
 narchoqdan yo uxlo olmayman, yold toshdek qotib
 xlab qolaman. Soat o'n bo'lib, ishimni bitirib pullarni
 anab ko'rsam, o'ylaganimdan ko'proq bo'libdi.

Bu joyning boshlig'i ishchanligimdan mamnun
 o'lib: "Har kuni ishga kelsang yaxshi bo'lardi", dedi.

Uyga borganimda soat o'n bir edi. Charchoq-
 an bir axvolda edim. Ertasi kun, aslida, ishga kech-
 oq ketadigan kunim edi. Ammo barvaqt turib, sov-
 talarni olib ulgurji savdo bilan shug'ullanadigan ki-
 higa topshirib kelishim kerak edi. Onam bilan biroz
 uhatlashdim. Yaxshi ekanini, qo'shnilar bilan gap
 lib-gap berib turganini aytdi. Keyin esa to'lovlar nima
 o'lganini so'radi. Uyda haliy ham gaz va suv yo'q edi.
 Elektr tokining uzilishiga esa ikki-uch kun qolgandi.
 Ertaga hal qilaman, ona, xavotir olmang. Men endi
 xlashim kerak, juda charchadim", deya xonamga
 hilib ketdim.

Sizga oldinroq aytgandim-ku: bu kecha yo og'riq-
 lan uxlo olmay chiqaman, yoki toshdek qotib uxlayman
 deb... Boshida tanamdagi zirqirash dastidan uxlo olmay
 biroz to'lg'ondim, ammo keyin tarashadek qotibman.
 Ertalab telefon zangini eshitib o'rnimdan turdim. Direk-
 tor yordamchisi kelib bo'lgan, meni pastda kutayotgan
 ekan. Shosha-pisha kiyinib, yugurib uydan chiqdim,
 onamni ko'rolmadim ham. Direktor yordamchisi bi-
 an ko'rishib, hadyalarni necha puldan sotishim ke-
 rakligini bilib oldim. Ko'rinishidan, yaxshigina daro-

mad bo'lishi sezilib turardi bu ishdan. O'sha vaziyatda qancha qolsa ham, kaminaga farqi yo'q edi. Daromad bo'lsa bas, hamma ishni qilishga tayyor edim. Mollar ni qaerga sotish kerakligini, u joylarga qanday borilishini – hammasini bilib oldim, qisqasi.

Direktor yordamchisi mollar bilan qiynalib yuzmasligim uchun manzilga tashlab qo'yadigan bo'ldi.

"Mollarni sotib kelguningcha kutib turib keyin uyingga tashlab qo'yaman", dedi u. Chunki uylarimiz bir-biriga yaqin edi. Yo'lga tushdik, borguncha quyuq suhbat bo'ldi. U yaxshi odamga o'xshardi. Bir-birimiz bilan dardlashib ketdik. Uning oilaviy g'am-tashvishlari ko'p ekan, mening ahvolim ham, o'zingiz bilganingizdek, undan farqli emasdi.

Sharoitimni gapirib berganimda rosa afsus chekdi. Yoshimiz orasidagi farq anchagina bo'lsa-da, ikki do'stdek yaqin bo'lib qoldik. Menga ba'zida aka, ba'zida do'stdek muomala qilardi. Kamina esa uning samimiyligiga ukalarcha javob qaytardim. O'sha chog'larda eng ko'p ehtiyoj sezayotganim ham aynan aka yelkasi edi-da...

Ko'zlagan manzilimzga ham yetib bordik. Endi faqat sovg'alarni sotish qoldi, xolos. Bunday ishlarga vositachilik qiladigan bir tanishim bilan do'konga kirdik. Do'kon egasi jiddiy odam ekan. Ya'ni qanday tushuntirsam ekan, yuz ifodasidan, boshidan ko'p narsalar o'tgani bilinib turardi. Qarashlari juda ham keskin va haybatli kishi edi. Ya'ni dard-u hasrat iz qoldirgan, ko'p qiyinchiliklarni yengib o'tgan odamga o'xshardi, shu bilan birga juda kamgap ham edi.

Boshqalar bilan otamlashishni uncha xushlamaydigandek taassurot qoldirsa-da, unga yoqib qoldim. Ruhiyatimiz to'g'ri keldi, chog'i... O'tirdim, choy, qahva degandek... Keyin sovg'alarni topshirib, pulini oldim.

yana ozroq suhbat qurdik. Har doim bemalol mol keltirib sotib ketishim mumkinligini aytdi.

Savdomning moyanasi kutganimdan ancha ko'p bo'ldi. Shuning uchun kayfiyatim chog' edi. Aslida, narxlar odatdagidek edi, ya'ni qimmat emasdi, ammo sovg'alar bo'lgani uchun, boshliqlarimizga ham tekin tushgani uchun menga ham ancha daromad qoldi. Aytish mumkinki, bir maoshim qadar edi bu pullar. Do'kondan chiqib mashinamiz yoniga bordim va pulni direktor yordamchisiga uzatdim. Juda ham xursand edim. Chunki hozir oladigan pulim menga ancha asqotardi. U pulni olib sanadi va: "Ulushingni oldingmi?" deb so'radi. Men: "Yo'q, aka, nima olgan bo'lsam shunday keltirdim. Mollar narxi shuncha bo'lishi kerakmasmi o'zi?" deb so'radim. "Ha-ha, to'g'ri", dedi va bir miqdor pulni olib menga berdi. Ammo bergani juda oz edi. Agar meni bu yerga olib kelmasa va mikroavtobus bilan borib-kelsam, faqatgina yo'lpuli va chanqoq bosish uchun ayron olishgagina yetadigan darajada edi. Hech narsa deyoimadim unga. Hisob-kitobni qanaqa qilganini ham tushunmay qoldim to'g'risi...

Yolg'iz qoldim dema, Insonlar do'stligi manfaatlari qadardir, angla!

*Agar do'stlik-o'rtoqlikni Allohdan kutsan
hech qanday bezaksiz oddiygina
bo'lsang ham, aslo yolg'iz qolmaysan...*



Yana yo'lga tushdik. Ammo kelayotgandagi suhbatdan asar ham yo'q edi. Ikkalamiz ham og'zimizga talqon solib olgandek edi. Kayfiyatim rasvo edi. Buni sezgan direktor yordamchisi: "Nimaga jim ket-yapsan, gurungdan ol", dedi. Meni to'g'ridan-to'g'ri so'rab qo'ya qoldim: "Bu bergan pulingiz kam emasmi, aka?" Savolimni eshitib nima deyishini bilmay qoldi. Menimcha, birdaniga gapni shundan boshlashimni kutmagandi. Bir zumda yuz ifodasi o'zgarib: "Uzr, ukam, salgina adashdim chog'i", deya yana o'shancha pul berdi. Xullas, uning niyatini anglolmadim. Jahlim chiqayotgandi. Bir emas, ikkinchi bor yosh bola qilayotgandi bunday insofsizligi bilan. Sotgan mollarim qaerda-yu, buning berayotgan ulushi qaerda... tushunarliroq qilib aytadigan bo'lsam, naq yigirma dona sovg'a sotdim, ammo u menga bir dona sovg'aning o'ndan biriga teng pul berdi.

Bu yog'iga jim holda o'ylay boshladim. Chunki butun umidim mana shu savdodan edi. Shu payt boshqa bir direktor yordamchisi telefon qilib, o'ziga tushgan sovg'alarni sotishini aytdi. "Uning ham holi mana bunday bo'ladimi endi?" deb o'ylaganim uchun ko'pam suyunmadim. Ammo: "Kelishdik, aka, sotamiz", dedim.

"Hoziroq borib seni olib ketaman, qaerdasan?" dedi. Manzilni aytdim. O'sha yerga boradigan bo'ldi. Belgilangan joyga kelgach, mashinadan tushib, haligi kishiga qo'ng'iroq qildim. Uni kutarkanman, g'udrana-g'udrana sigaret tutatdim. Chunki sabr qilolmayotgandim bu insofsizlikka. G'am-tashvishlar ustma-ust kelayotgandi. Shu bois juda ham siqilayotgandim. Agar o'sha paytda onam farrosh bo'lib ishlayotgani-ni bilsam fig'onim falakka chiqishi tayin edi. Shukrki, direktor yordamchisi vaqtida keldi. Bu narigisidan

ham qiziqqon edi. Bir marta og'zim kuygani bois u ga avvalgisidan ham sovuq muomala qilayotgandir. Kayfiyatim yo'qligini sezdi chog'i: "Arslon, nima bo'ldi senga, achchig'ing burning uchida turganga o'shaydi", dedi kulimsirab. "E'tibor bermang, aka, u-tashvishlar ta'siri bo'lsa kerak", deb javob berdim. Menga xotirjam bo'lishimni, yaxshigina pul ishlash olishimni, hadyalardan keladigan pulning o'zi uchun unchalik muhim emasligini, foydani teng ikkiga bo'lishimizni va mashina o'rindig'i orqasiga nazar solishimni aytdi. Qarasam, shunchalar ko'p mol borko'zlarimga ishonolmadim. "O'zingni bos", deya davor etdi. "Hammasi sotilmaydi. Bir qismini pullaymiz. Ammo vaqt o'tgan sari ko'proq-ko'proq keladi, yanada ko'proq sotamiz va yanada mo'lroq daromad qilamiz", dedi. Bu gapni eshitib kulimsiradim. Haqiqatan ham samimiy, chin ko'ngildan tabassum yoyildi tumtagan yuzimga...

Yo'lda ketarkan rosa gurunglashib bordik. U paytlar o'tib ketganiga ham ancha bo'ldi, aniq eslolmayapman-u, ammo juda ham samimiy edik bir-birimizga. Nihoyat, do'konga ham yetib keldik. Tag'in do'konga kirdim. Bu safar qo'limda ikki sumka sovg'a bor edi. Birinchi safar mollar bir sumka edi. Do'kon egasini ko'rib hayron qoldi: "Boyagina kelgan eding-kun biror muammo bormi?" deya qarshi oldi meni. Xullas, biroz xavotir zuhur etgandi yuzida. Buning sababini tushunmadim, ammo hammasi joyidaligini bildirib: "Xohlagan paytim mol olib kelishim mumkinligini aytgan edingiz", deya o'tirdim va: "Qahva ichmaymizmi, aka?" dedim. Suv ham olib kelishlarini iltimos qildim. Chunki og'zim qurib qolgan, ustiga-ustak juda ham toliqqandim.

Chaqqonlik bilan sumkalarni ochib, narsalarni ko'rsatdim. Do'kon egasining ko'zlari piyoladek bo'lib ketdi. "Axir bu xazina-ku", deya ularga termildi va: "Bularni qaerdan topding birpasda?" deya so'radi. "Uzumini yeng-u, bog'ini surishtirmang!" deya kuldim. Darhol sovg'alarni sanab chiqdi. Ammo yonida pul yo'qligini, meni biroz kuttirishini, bankka borib kelishini aytdi. Vaqtim juda ham ziq edi, biroq: "Kelishdik, aka, faqat iloji boricha tezroq keling", dedim.

U ketgandan so'ng do'konga ko'z qirimni tashladim: kichkinaroq, shinam, tinch, ammo doimiy mijozlarga ega, boshqa joylardan qirq foiz arzon narxda sotadigan, sovg'alar savdosida o'ziga xos bir yo'nalish shakllantirgan ko'ngildagidek yer ekan. Do'kon egasining ham ko'ngli tozaligi sezilib turardi. Do'kon menga juda ham yoqib qoldi. "Mashaalloh!" derdim ichimda. Ammo ishga kech qolishim mumkin. Agar shunday bo'lsa, maoshimning kam chiqish ehtimoli bor. Bu yog'iga har qanday omilni hisoblay boshlagandim. So'ngra do'kon egasi kelib pulni berdi. Men esa hamkorlar bilan xayrlashib, boshlig'imiz avtoullovi sari yugurdim. Miyamda har xil fikrlar aylana boshladi: "Qani endi har ikki-uch kunda shunday bo'lsa", "Koshki birga ishlagan barcha rahbarlarim ham menga ko'p-ko'p pul bersa". Koshki, koshki, koshki... To'g'ri, bu fikrlarim vasvasadan boshqa narsa emasdi, ammo Alloh aytadiki: "Hech qaysi qulim hech kimsadan poyabzal bog'ichini ham so'ramasin, balki Mendan so'rasin, unga hammasini O'zim beraman". Biroq, nima qilay, o'sha paytda miyamga hech narsa kelmayotgandi-da. "Allohim, O'zing madad ber", deyishdan boshqa iloj topolmayotgandim. Najotni boshqa joylardan qidirayotganimni bilmasdim o'sha kezlarda.

Insonlarni "xom sut emgan banda" deydilar. Bu gap mutlaqo to'g'ri. Sen ham, men ham - hamma xom sut emib katta bo'lgan, shunday emasmi...

Mashinaga bordim, pulni uzatdim boshliqqa. Ammo olmadi. Ruldan orqaga o'girilib: "Ulushingni o'zing belgila. Qancha istasang olishing mumkin", dedi. Bu gapni eshitib shoshib qoldim. Chunki kim ham begona bir bolaga bunday der edi? Avval hazillashtirayotgan deb o'yladim. Gaplarini tushunolmadim. Ammo unda avzoyi jiddiy tusda edi. "Qani bo'la qol, birodar, qancha olsang ol-da, qolganini menga ber, kamina ham bir maza qilib pul sanasin", deyotgandi. Bilasizmi, qo'limdagi pul juda ham ko'p edi. Naq ikki maoshin miqdorida. Ba'zilar uchun hech qancha hisoblanmasa-da, menga misoli darmondoridek ahamiyatli edi. Shuncha mablag'ning hammasi qo'limda turardi va undan qancha olishimni o'zim hal qilishim darbor edi. "Bu ishni men qilolmayman", dedim. "Haqqim qancha bo'lsa, ko'nglingizdan chiqarib o'zingiz bering" deya pullarni unga uzatdim. Bu gapimni eshitib kulimsiradi. "Menga qara, oshna, agar doim shunday sodda bo'lsang, tijoratda ko'p qoqilasan. Savdo-sotiq deganlari sen o'ylaganingdek halol va rostgo'y kishilar shug'ullanadigan soha emas. Aksincha, manfaatlariga to'g'ri keladigan ishdan qaytmashliging kerak. Bu yerda foydani ko'zlab harakat qilinadi. Sen ham shunday qilishing kerak. Zararli narsalarni o'zingni urmasliging lozim", deganda xayolimga yal etib shunday fikr keldi: bu ishdagi xavf-xatar nima o'zi shuni tushunolmayapman. Puldan oldin o'sha xavfni so'radim va: "Qanaqa xavf-xatar, aka?" degan edim yana kulimsiradi. "Es-hushing joyida deb umid qilaman, Arslon. Axir pora uchun kelgan sovg'alarni ulgurji narxda sotib kelyapsan.

Sovg'a-ku bu, sovg'a, tushunyapsanmi? To'g'ri, qing'ir ish emas, ammo bizning tashkilotda yaxshi qabul qilinmaydi bu narsa", deganini eshitib miyamning qatig'i qaynab toshib chiqayotgandek bo'ldi. Men qanaqa narsaga aralashib qoldim o'zi? Ozroq qiyinchilikka chidolmay, ko'rmagan-bilmagan ishga bosh qo'shdim. Yana deng, yaxshi qabul qilinmaydigan ishga. Boshida hech qanday noto'g'ri tomoni yo'qdek ko'ringandi. Shuning uchun o'ylamasdan bunga qaror bergandim. Shunchaki pulga ehtiyojim bor edi va men qo'limdan kelgan narsalarni qildim. Avvalini, oxirini, oqibatini, hech qaysisini aql tarozisida tortmadim. O'sha chog'da faqat xavf-xatar haqida o'ylayotgandim. Na kommunal to'lovlar, na pul - hech qaysisini o'ylashga majolim qolmagandi.

Boshlig'im: "Xotirjam bo'l, xotirjam", dedi menga. Boshimni ko'tarib unga qaradim. "Ishonchli kishilar bilan ishlasang bas, bu haqida hech kim eshitmaydi, tashvishlanma. Mabodo, kimdir bilib qolsa ham, nari borsa ishdan haydalasan. Biroq boshqa yerda yo'lingda davom etaverasan", dedi. Ammo ishdan haydalsam, nima qilaman, hech aqlim yetmayapti. "Dardlar daryo, tagimda bir kursi, unda ketyapman suzib", degan qo'shiqdagidek holda edim shu asnoda. Daryoda suzish davomida ag'darilib g'arq bo'lish ehtimoli ham bor. Lekin men buni avvaldan hisobga olmagan edim. Tag'in sig'inishim kerak bo'lgan Zotga, ya'ni qiyinchilikka duch kelganda esimga tushadigan, yaxshi kunlarimda esa yod etavermaydiganim Rabbimga duo qildim "O'zing madad ber", deya. Keyin esa o'zimdanda bir narsani so'ramasdan turolmadim: "Hamma narsa joy-joyida bo'lganda, maza qilib yashayotganingda Allohni eslamaysan, duo qilmaysan-u, boshingga

mushkul tushganda, dard daryosiga g'arq bo'yotganingda U Zotni eslab qolasan-a, Arslon?! Rabbim duoyimni qabul qilarmikan?" Keyin esa o'z volimga o'zim javob berdim: "Ha, albatta, qabul qila. Chunki Alloh eng kechirimli, eng ko'p afv qiluvchi Zotdir". Xullas, yana bir bor ma'naviy jihatdan o'zini ruhlantiradigan so'zlarni topa olgandim...

Yo'lda ketib borarkanmiz, direktor yordamchi pullarni sanayotgandi. Ulardan bir qismini men uzatdi. "Ol, birodar, shunchasini ishlatib tur. Modermiki, ulush ajratishni menga topshirding, men har aka-uka hisob-kitobini qildim o'zimcha", dedi. Pul sanab bildimki, haqiqatan ham daromadning to'rtida birini menga bergan ekan. U rostdan ham akali qilibdi. Ko'zlarimga yosh qalqdi. O'sha paytda pulni ko'p bergani uchun emas, rostdan ham akamde mehribonlik qilgani bois ta'sirlandim. Chunki men ko'p akalik mehrini ko'rgan, otalik shafqatini totgan do'st vafosidan bahramand bo'lgan yigit emas edim. Bir o'ylab ko'ring-a, oldin aytganimdek, qarindoshlarim ham qo'ng'iroq qilib hol so'rashga yaramadi...

Yiqilgan paytda insonning atrofida hech kim to'pilmaydi. Kim nima desa desin-u, bunday og'ir kunlarda hamma yo'q bo'ladi qoladi. Aslida, insonning Allohdan boshqa hech kimga ehtiyoji yo'q. Agar U Zot siz bilan bo'lsa, butun dunyo birlashsa ham, sizni yengolmaydi.

Fil surasining 1-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: **"Rabbim fil sohiblarini nima qilganini bilmadingmi?"** Rabbim o'sha chog'da menga yordam qo'lini cho'zgan edi. Ammo men buni anglamagandim. Qo'limdagi pulni qayta-qayta sanayotgandim. O'ziyam uch-to'rt marta sanadim va u ovoz: "Hey baraka top"

kur, hadeb sanayverasanmi pul ko'rmaganga o'xshab?" dedi. Oldingi sherigimga aldanib qolganim uchun, buni nisiga hech narsa deyolmadim, boshimga tushgan-lar borasida. Hammaga ham ko'ngil yorib bo'lmasli-gini oldingi "do'stim" yaxshilab tushuntirib qo'ygandi. Ishonish, ishonilish tuyg'usini shu odamdangina topgan edim. Nima bo'lganda ham sheriklikda qilingan ishlarda, tijoratda aka-uka shaklida ulushlarni belgilab olish kerakligini, agar bir inson tufayli pul topayotgan bo'lsang, unga e'tibor berishing lozimligini tushunib yetgandim. Bo'lib o'tgan ishlar menga shunchaki bir darsdek tuyilayotgandi.

Miyam esa: "Bularning qay birini qanday tushunish kerak?" deb baqirayotgandi. Balki, katta bo'layotganmidim?.. Ha, yetilib meva berar darajaga kelayotgandim, chamamda. Direktor yordamchisiga ishga tezroq borishim kerakligini aytdim. "Aka, biroz tezroq yursak, bo'lmasa kech qolaman", degandim, u tezlikni oshirdi. Ketayotgan paytda mashinaning juda ham ajoyib ekanini his etdim. Narigi boshlig'imizda ham qimmatbaho ulov bor edi. Ko'pam bunaqa "toychoqlar"da yurmaganim sababli oddiy mashina ham ko'zinga chiroyli ko'rinardi. Ich-ichimdan "Masha-alloh", deb qo'yayotgandim. Mashina tezligi oshgan sari meni qo'rquv bosa boshlagandi. Bir payt kutilmagan-da yo'ldagi mashinalardan biriga urilib ketay dedik. Shunda istar-istamas old o'rindiqda o'tirgan holda tormoz bosgandek harakat qilibman deng. Buni ko'rib boshlig'im kulib qo'ydi va: "Qo'rqmasang-chi, buni to'xtatish kaminaning qo'lida. Tormozi ham yaxshi ishlaydi. Old o'rindiqda o'tirganing bilan uni to'xtatolmaysan", dedi. Bu gapdan so'ng qah-qah urib kuldik. Boyagina osilib turgan yuzim xursandlikdan yorishib ketgandi...

Mana, ishxonaga ham yetib bordik. U yerda barmoq bosib kiriladigan turniket bor edi. Agar ket qolganimda, oldin ham aytganimdek, maoshimda olib tashlashardi. Mana shu andisha bilan biroz kilangan holda barmog'imni turniketga bosdim. Yashiyam vaqtida kelgan ekanman... Ishni ham boshlayubordim. Ammo xayolim kommunal to'lovlarida edi. Shu tufayli ishga hech e'tibor qaratolmayotgandim. Aslida, maqtanyapti demang-u, savdo markazimizda hali kelganimga bir yil bo'lmagan esa-da, xodimlarning oldi edim. Savdo-sotiqni ham juda tez o'rganib oldim. Biz chet el mahsulotlari bilan savdo qilardik. Inglizcha, nemischa yozuvlarni o'qib tushunishni o'rganguncha ona sutim og'zimga keldi o'ziyam. Chunki inglizcham maqtanarli darajada emasdi. Ochig'ini bu tilga hech qiziqolmadim. Darslardan ham doim qochib yurardim. Chunki nihoyatda qiyin tuyulgandi-da bu dahmaza. Biroq chet tillariga oddiygina savdo markazlarida ham ishim tushishini bilmagan ekanman. Haqiqatan ham, har bir voqeadan dars oladigan darajaga yetgan edim. "Oh Arslon, voh Arslon..." deya-deya kun o'tkazardim... Men uchun mana shunday qiyin o'tayotgan hayot onam uchun ham shundaymikin-a?

Axir u doim uyda. Suv yo'q, gaz yo'q. Elektr toki-ning uzib qo'yilishiga uch kun qolgan, ijara masalasi bor, bitta o'g'li harbiy xizmatda, yaqindagina qizini uzatgan, eri ham tashlab ketgan... Birgina men qoldim oldida.

Onamda bir holatni sezib qoldim: undan biror marta yomon so'z eshitmadim. Na isyon, na nolish, na boshqabirnarsa. Hatto "Nima uchun?" degan savolni ham bermasdi o'z-o'ziga. To'g'ri, kayfiyati bo'lmay yurgani yuzidan doim sezilib turardi. Ammo shunday hollarda

ham tabassum qilishga intilardi. Balki, undan kuch olgan holda buncha qiyinchilik ichida ham o'zimni yaxshi his qilayotgandim. Unga qachon: "Endi nima qilamiz?" desam, "Alloh biz bilan, g'am yema", deb ko'nglimni ko'tarardi. Onamdan o'rganganim eng muhim narsalardan biri Allohga ishonish edi.

Hali ancha yosh bo'lishimga qaramay, chekayotgan g'amlarim haddan oshiq bo'lsa-da, yoshi o'tib borayotgan inson uchun, ya'ni onam uchun mendagidan ham og'ir kelayotgani aniq edi. Shunday holda ham doim kulib yurardi. Xayolim doim validamda edi...

Har kimning onasi o'zi uchun beqiyosdir. Aslida, hammaning onasi yagona. Dunyodagi jamiki onalar misoli guldir, chechakdir, Jannat ularning oyog'i ostidadir. Ona bo'lish ham bir fazilat. Hamma ham bunday baxtga erishavermaydi, to'g'ri kelgan ayol bu mas'uliyatni ko'tarolmaydi. Faqatgina bolani tug'ib qo'yish bilan ona degan muqaddas nomga loyiq bo'lish mumkin emas. Buni zamonamizda chiqayotgan ko'plab xabarlar orqali ko'rib turibmiz. Ona bo'lish o'zgacha bir narsa... Kimdan so'rasangiz so'rang, onasiga bo'lgan mehrini tasvirlab berolmaydi. Ta'riflarga sig'maydigan bir xilqatdir ona. Mehrlarning eng go'zalidir u. Ona jondir, ona sadoqatdir, hurmatdir. Ona yurishni, gapirishni o'rganishdir. Ona – katta bo'lganda qarshisidagi insonga qanday muomala qilishni bilishdir. Ona sevishni o'rgatuvchidir, ona hayotdir, ona quyoshdir, qisqasi, ona hamma narsadir... O'g'il uchun ona umuman o'zga bir olam. Men onamni juda yaxshi ko'raman va buni kech bo'lmasin yana, deb har zamonda o'ziga aytib turaman. Sen ham sinab ko'r. Ishon: onalar dardimizni, ziyon-zahmatimizni, notavonliklarimizni shunchalar ko'p ko'rdilarki, bir

og'iz chiroyli so'zni eshitishga mutlaqo haqlilar. Bu quyidagi rivoyat orqali tushuntirishga harakat qilaman. Ertalabga yaqin, aniqrog'i soat uch yarimlari telefon jiringladi. Telefon egasi uyqusiragan holda go'shakni ko'tardi. Onasi ekan. Bu bemahal qo'ng'iroqdan tashvishga tushdi, ko'ngliga har xil xayollar keldi. Onasi: "Ahvoling yaxshimi, o'g'lim", deya so'radi. O'g'iltashvishli ovozda: "Yaxshiman, shukr, tinchlikmi ish qilib, biror gap bo'ldimi yo'qsa? O'zingiz salomatmisiz?" dedi.

"Yaxshimiz, Xudoga shukr, shunchaki ovozingiz eshitgim keldi", dedi. O'g'il: "Shugina uchun yarim kechada qo'ng'iroq qildingizmi? Axir soat uch yarim. Ertalab ham gaplashishimiz mumkin edi-ku", deya ming'irladi. Onasi o'g'lining bu tanbehini eshitib: "Bezovta qildimmi, o'g'lim", deya siniq ovozda so'radi. O'g'il, aslida, onasini xafa qilishni xohlamasa-da, yarim kechada uyqusi buzilgani tufayli bir onlik g'aflat va jahl bilan: "Bo'lmasam-chi, ona, bezovta qildingiz", dedi. Bunga javoban ona: "O'ttiz yil oldin sen ham meni mana shu vaqtda bezovta qilganding, bolam, tug'ilgan kuning muborak bo'lsin", dedi va go'shakni qo'ydi. Bu rivoyatdan kim qanday xulosa chiqaradi bilmayman-u, qachon o'qisam yoki yodimga tushsa, ko'zlarimga yosh aylanadi. Fikrimcha, sizda ham shunday bo'lsa kerak. Onalar o'zgacha xilqatdir. Buning ta'rif-u izohi, o'lchovi yo'q...

Kichkinaligimda boshqa og'a-inilarimga nisbatan onamni tezroq sog'inib qolardim. O'zim-ku, uncha yaxshi eslolmayman, ammo onam va opam doim buni aytib kulishgani-kulishgan. Mana shunday kichkinagina bir yoshlik onimni siz bilan bo'lishishni xohlayapman. Siz deng yetti yoshimda, men dey sakkiz yoshimda,

ammo onam o'shanda to'qqiz yoshda ekanimni aytadi. O'n-o'n besh dona kartoshkani olibman (bola aqlim bilan olti kishi shuncha yesa kerak deb o'ylagan bo'lsam kerak) va pichoq bilan hammasini yarim kechasi archib chiqibman. Ularning ustiga esa qisqagina bir xat yozibman: "Qadrli onajonim, doim sizning qo'lingiz toliqaveradimi, bir gal meniki ham toliqsinda. Sizni juda ham yaxshi ko'raman". Onamning bizga ovqat tayyorlashi u uchun bir vazifa sanalsa-da, mendagi vijdon uning tashvishlarini jim kuzatib turolmagan-di. Chidolmagandim, ochig'i...

Bunday holni ta'riflashga til ojizlik qiladi. Sizningcha, onamga bundan-da ajoyib hadya berishim mumkinmidi?

O'sha ishimni onam doim mamnuniyat bilan eslab yuradi. "Yaxshiyam shunday qilganim", deb qo'yaman o'zimga-o'zim, bu voqeani eslagan paytda...

Shuni unutmangki, hech narsa uchun kech emas. Onangizga kutilmagan syurpirzlar qiling. Bergan arzimasgina sovg'angiz ham ularni shunchalar xursand qiladiki, qani endi buni bilganingizda. Ammo tasavvuringizga ham sig'dira olmaysiz! "Ona bo'lmay turib tushunolmaysan", deydi doim onam. Men-ku erkak kishiman, ona bo'lmayman, ammo kun kelib ota bo'lganimda, balki, tushunarman farzand nimaligini...

Xo'sh, ota bo'lish menga nasib etarmikin? Buni ham faqat Alloh biladi...

Ha endi sizga biroz ko'ngil yozdim-da. Endi esa yana mavzumizga qaytsak...

Suv, elektr va gazga to'lov qilishim kerak edi. Ammo pulim yetmayotgandi. Chunki naq to'rt oydan beri bir tiyin ham to'lanmagandi-da. Bor-yo'g'i ozroqqina suv beriladigan darajada qarzlardan oshib qoldi to'-

lagan pulim. U ham bir-ikki haftaga yetardi, xolos. Ga
ni qaytadan ulab berishlari uchun barcha qarzlarda
qutulishim kerak edi. Unga esa pulim yetmayotgand
Ammo elektr tokini uzmasinlar deb, oxirgi oy uch
to'lov qildim. Qo'limda ozgina pul qoldi. Keyin esa hisob
kitobga tushib ketdim: "Demak, maoshimni olgunch
hamma qarzlardan qutulaman, inshaalloh", degan xa
yol bilan, qolgan pulimni uy oldi-sotdisiga tikishga
qaror qildim...

Savdo markazida qalin bo'lib qolgan do'stlarim
dan biri oldimga kelib: "Nima xayollar bilan bandsan
do'stim? Savdo ham qilmayapsan. Shuning uchun mu-
kofot puli ham ololmaysan. Kassadan sotilgan narsa-
larga qarasam, sening hisobingda bir dona ham mah-
sulot yo'q. Agar shunday qilaversang, oqibati yax-
shi bo'lmaydi", dedi. Haqiqatan ham hech narsa qil-
magandim. Na mijozlar, na rastalar, na tozalik bilan
shug'ullanibman... Kun bo'yi bekordan-bekorga u yer-
dan-bu yerga borib-keldim, xolos. Hech kim bilan gap-
lashgim kelmas, faqatgina o'ylash bilan ovora edim.

Bu hol direktorning diqqatini tortgan, shekilli, me-
ni xonasiga chaqirdi. "Arslon, seni qiynayotgan qanday
muammolar bor bilmadim-u, lekin darhol o'zingni
qo'lga olib, ishga kirish.

Sotish darajang bugun nolga tushib qolgan. Bu ham
yetmagandek, kelgan mijozlarga ham qaramayapsan",
deya bir dunyo ma'ruza qildi...

Inson yaqinlaridan hol so'rab turishi kerak, to'g'-
rimi? "E menga nima", deb o'tib ketmaslik darkor. O'tib
ketilmaydi...

Men savdo markazida shuni o'rgandim. Kingadir
nimadir bo'lganini sezsam, undan hol-ahvol so'rashim,
nima bo'lganini bilib, yordam berishga harakat qili-

shim kerakligini angladim. Boshliqning xonasidan chiqqach, yana ishga tushib ketdim. Kun oxirigacha bir necha narsa sotishni reja qildim. Ammo ishdan chiqish uchun soat o'n bo'lishini kutardim. Ertaga soat oltida ishdan chiqib mikroavtobus yuvishga borish xayoli bilan band edi miyam. Biroz oldin "Onam bir o'zi zerikmayotganmikan, buncha muammoga qanday chidayotgan ekan?" degan edim-ku. O'sha paytlarda u farroshlik qilar, men esa bilmas ekanman. Menga aytishi bo'yicha qo'shininikida, xolamnikida, Qur'on o'qishga ketgan bo'lardi. Har holda bu bahonalar bilan meni aldashni uddalardi. Kechki payt onamning oldiga borib, "Endi suvimiz ishga tushadi", "Elektrimiz ham o'chmaydi, xavotir olmang", deyishni va "Gaz masalasini ham maosh olganda hal qilaman", deyishni hamma narsadan ko'proq xohlayotgandim.

Nihoyat, soat o'n bo'ldi. Mikroavtobusga chiqdim. Ichimdagi hayajonni bosolmayotgan, tezroq borib onamdan suyunchi olishni xohlayotgandim. Bunaqangi xursand bo'ladigan chog'larimni shunchalar sog'ingan ekanmanki, ta'rifiga til ojiz. Eng asosiysi, bu voqealardan o'zim uchun xulosa chiqardim. Yomon kun kelmay turib yaxshi onlar qadrini bilmas ekan inson. Qoraning go'zalligi oqda, oqning jilosi qorada yashiringan bo'larkan. Qora bo'lmasa oq oq bo'lmas, oq bo'lmasa, qora ham qora bo'lmas ekan. Yomon kun bo'lmasa, yaxshi kun bo'lmaydi. Go'zal kun bo'lmasdan turib esa yomon kun ham bo'lmaydi. Bu holat qanchalar o'zgacha bir jarayon-a. Mazkur qonuniyat biz insonlar uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Mikroavtobusdan tusha solib do'konga yugurdim. U-bu narsa xarid qildim: bir litr yog', non, onamga shirinlik, o'zim uchun sigaret, pishloq, zaytun, yana,

onam yoqtiradigan ermak qilish uchun shirin tuzli pista... O'zim uchun hech narsa xarid qilishni xohlamadim. Yugura-yugura tepaga chiqdim. Uy chiqqan roqlari o'chgan edi. Onam uxlab qolgan bo'lsa kerak deb o'yladim. Ichkariga kirdim. Qarasam, onam oshxonada sham yoqib o'tiribdi. "Sizga nima bo'ldi, ona?" dedim. "Elektrga pul to'lab keldim, o'g'lim", dedi u. "Ammo beshinchi oyga o'tganmish, shuning uchun kutib o'tirisholmabdi. Bugun kelib uzib ketishdi. Aytishlaricha, bir oylik to'lovni to'lashning foydasi yo'q ekan", dedi va yig'lay boshladi. Ko'nglim chil-chil bo'ldi buni ko'rib. Uning ayol boshi bilan elektrga pul to'lab kelganiga kuyaymi yoki yig'lashigami? Bunday paytda inson shunchalar g'amga botadiki... Ammo kuchli bo'lishga majburman. Buni sizga qanday tushuntiraman ekan. Haligi, bu uyning ustuni, erkagi men edim. Agar yiqiladigan bo'lsam, hamma narsa ostin-ustun bo'ladigandek tuyulardi menga. Go'yo o'zimni yiqitish-ga haqqi yo'q bir qal'a deb hisoblardim. Hatto "Ey voh" ham deya olmasdim, ishonasizmi?

Onamni bag'rimga bosib men ham yig'lay boshladim. "Ishoning menga, bularning hammasini yengib o'tamiz", deya, "Menga suyaning, men yoningizdaman", deya tasalli berishga urindim. Biroq uni yupatishning iloji bo'lmadi. Shunday bo'lsa-da onam kuchli ekanimga ishonardi. Shu bois "Yaxshiyam borsan, o'g'lim", deya u ham meni quchdi.

Hukmim o'qilgandek his etayotgandim o'zimni o'sha paytlarda, ishonasizmi? Hamma narsadan xulosaga chiqarishga harakat qilsam-da, ruhim ozor topayotganini, zarar ko'rayotganimni bilib turardim. Shaxs sifatida voyaga yeta boshlagandim. Achchiq, ammo haqiqat edi bu. Arslon odam bo'la boshlagandi. Yigir-

ma ikki yoshida tengdoshlaridan mutlaqo farq qiladigan hayoti bor edi uning.

Onamni tinchlantirgach, olib kelganlarimni ko'rsatib, birozgina yuzini kuldirishni xohladi. Rahmat aytdi va shirinlikdan ozroq yegan bo'ldi. "Ko'pdan beri bunaqa shirinlik yemagandim", dedi. Yeyolmayman, o'g'lim, deyolmadi. U-ku aytoilmadi. Ammo men ichimda ho'ng-ho'ng yig'ladim. Ko'z yoshi nima o'zi, bilasanmi? Bu - ko'zdan oqadigan suyuqlik emas, do'stim. Asl ko'z yoshi - ichingga oqadiganidir, ichingga. Uni his qilasan, qalbingga gursullab tushadi: naq jigaringga tushadi.

Yoqadi, vayron qiladi, kul etadi. Ammo "g'iq" deb ovoz chiqarolmaysan. Ichingdagi hamma narsani o'rtadan ikkiga ayiradi, ovoz chiqarolmaysan. "Hey shoshma", deyolmaysan, oldini ololmaysan. U baribir oqadi, hamma yeringni parchalab tashlaydi... Haqiqiy ko'z yoshi mana shunaqa bo'ladi. Yig'ladim degan chog'ing yana bir bor o'ylab ko'r...

O'sha paytda aqlim boshimdan uchib ketayotganini kuzatib turardim go'yo. Miyam ham bo'm-bo'sh edi. Onamning biroz o'ziga kelishini kutayotgandim xonasiga olib borib yotqizish uchun. Birozdan so'ng joyiga yotqizdim, ustini yopdim va: "Ona, men suvning pulini to'lab keldim, endi bizga ikki-uch oyga yetadi, xavotir olmang. Gaz va elektr masalasini ham iloji boricha tezroq hal etishga harakat qilaman. Siz faqat duo qiling va orom oling, o'g'lingiz doim yoningizda", dedim.

Ikki-uch oy emish... aslida, suvimiz bir yoki uzog'i ikki haftaga yetishi mumkin edi. To'g'ri, yolg'on gapirdim, ammo uni xursand bo'lishini xohladi-da, nima qilay. Onam ham: "Alloh sendan rozi bo'lsin,

o'g'lim, duolarim doimo sen bilan. O'zing ham damingni ol endi", deya o'pib qo'ydi meni. O'payotgan paytda ko'zidan oqqan yosh tomchisi yonog'imda qoldi. O'sha joyim yondi, kul bo'ldi...

So'zlar bilan ifodalab bo'ladigan narsa emas bu. Ba'zan tilim tutilib, aylanmay qoladi shu desangiz. So'z boyligim ozlik qiladi. Xonamga o'tib, o'yga oldim. Nimani qanday qilsam ekan? Haligi aka-uka taqsimotini qilgan direktor yordamchisidan shoshilinch ish kelishi kerak edi. Ishni bitirgandan keyin esa unga vaziyatimni tushuntirib, oldingidan ko'proq ulush berishini so'rashim lozim. Chunki hatto telefonim ham tamom bo'lay-bo'lay deb qolgandi. Ya'ni juda eski edi. Shu bois sotolmasdim. Sotadigan boshqa narsam ham yo'q edi. Shu payt xayolimga onamning kichikligimda men uchun olgan oltin medalyoni keldi. O'shani pullashim mumkin edi. Darhol uni qidirishga tushdim. Ammo qancha izlasam ham topolmadim. Ertasi kuni onamdan so'rashga qaror qildim. Uyni qidirayotganda ko'rdimki, uning birorta taqinchog'i yo'q edi. Inson shunday paytlarda juda ham xafa bo'larkan. Ya'ni onasining hamma narsasi sotilgan, o'zi uchun biror narsasi qolmagan bo'lsa...

Hayot menga shunday darslar berayotgandiki, umrimning qanchalab qismi bekor o'tganini anglayotgandim shu bahonada. Naq yigirma ikki yil yashab qo'ygandim axir. Bu aytishga oson, ammo shuncha yil oqib ketgan edi. Na maktab davri ko'ngildagidek o'tdi, na biror maqsad sari intildim va na biror fazilat shakllantira oldim o'zimda. Xullas, hech narsa...

Nima qilishimni bilmay boshimni yostiqqa tashlab, choyshabni ustimga tortdim. Chunki uy muzlay boshlagandi. Isinish uchun na gaz bor, na elektr toki...

Bu narsa xayolimga kelishi bilan onamning xonasiga o'tib, ukamning adyolini uning ustiga yopdim. U hali ham uxlamagan edi. Tepasiga kelib ustini yopganimni sezib: "Baraka top, o'g'lim", dedi.

Dunyoying zulmat ichra g'arq bo'lgan bo'lsa
 agar qop-qorong'i tun seni o'rab olgan bo'lsa
 qalbingdagi yaxshilik tugmasini bos.
 Boski, o'ngu so'lingni ko'rishing
 mumkin bo'ladi.
 Shunda kim do'st-u kim dushmanligini
 ham bilib olasan.



Agar qalbingda yaxshilik daraxti
 chuqur ildiz otgan bo'lsa, eng
 og'ir kunda ham yaxshilik qilishga
 qodir bo'lasan va to'siqlardan oshib o'tib,
 yo'lingda davom etaverasan.



desalar, "Toshingni ter!" deyman. Soat olti-yu yigirmada ishga tushdim. Bu yog'lga chaqqon-chaqqon harakat qilib, mikroavtobuslarning kelganini-kelgan zahot: yuvib tashlashim kerak edi. Chunki bu yerda qancha ko'p ish qilsangiz shuncha ko'p pul berishadida. Yuvilgan mikroavtobuslar boshiga qarab haq olayotganim uchun o'zimni qiynab bo'lsa-da ko'proq ish qilardim. Ertasi kuni narigi ishimga kech boriladi. Shuning uchun dam olish bo'lsa ertaga olaveramiz deb o'ylayotgandim. Soat o'ngacha bir nechta mikroavtobus yuvdim. Sanog'ini eslolmayman-u, ammo odatdigidan ancha ko'p edi. Yaxshigina pul oldim o'sha kuni. "Aka, ertaga ham vaqtim bor, soat nechada kelay?" deb so'radim direktordan. "Shu, oltilarda kelaver", dedi. "Undan ham barvaqtroq kelsam bo'lmaydimi?" deb so'radim tag'in. "Kela qol, Arslon, sen bilan bir choy ichaylik", dedi. Menga ham, o'ziga ham bir martalik stakanga choy quydi. O'zi shakarsiz ichishi sabab mendan ham so'rab o'tirmadi. Shuning uchun shakar so'rashga iymandim. O'sha paytda menga uning nima deyishi qiziq edi faqat. Choyni olib, uning taf-tida qo'llarimni istitib turardim. Chunki muzlab qolgandim-da. Qo'l va oyoq barmoqlarimni sezmayotgandek edim.

Oyoq kiyimimdan suv kirgan ekan. Uning bir tараfi teshik ekan, ish bilan bo'lib sezmayman ham. Faqatgina poyabzalni yechayotganimdagina bildim. Qisqa qilib aytadigan bo'lsam, direktorni eshitib turish men uchun qiyin edi. Muzlab ketayotgandim. Shunday bo'lsa-da, nima deyishi mumkinligi menga qiziq edi. Fikrimcha, ertaga ancha barvaqt chaqirmoqchi bo'lsa kerak...

"Ikkiti Ishda ishlayotganingni bilaman", dedi u. "Gapni cho'zib o'tirmayman. Agar narigi ishxonangda buni bilib qolishsa muammo chiqmaydimi? Bu haqida hech o'ylab ko'rdingmi? Ham, nima uchun barvaqt kelaman deb oyoq tirayapsan? Pul kerakligini-ku sezib turibman, dard-u g'amimg shunchalar ko'pmi, tushunolmayapman", dedi. Avvalroq bu masalada bir bor qoqilgandim esingizda bo'lsa, uning ta'sirida xulosa chiqargandim, hammaga ham ko'ngil yorib bo'lmasligi to'g'risida... Shu bois shaxsiy hayotim haqida hech narsa deyishni xohlamayotgandim. "Qo'yave-ring, aka, shunchaki pul kerak", dedim. "Ha, rostdan ham pul kerak. Agar ishxonamdagilar bu yerda ishlayotganimni bilib qolishsa, iltimos, Arslon qarindoshim bo'ladi deng ularga. Qolganini o'zim amallayman. "Qarindoshimga yordam beryapman", deyman. Men haqimda tashvishlanmang, ertaga barvaqtroq kelishimga ruxsat bersangiz bo'ldi", dedim. "Buning iloji yo'q. Oltida kelaver. Chunki baribir ish oltida boshlanadi. Agar dam olish kunlari barvaqtroq kelishni xohlasang, senga boshqa joy ham topib beraman. Ertaga-ku va'da berolmayman, ammo kelasi dam olish kunningda boshqa yerga, yengil mashinalarni yuvishga yuboraman", dedi. Bu gapni eshitib juda xursand bo'ldim va: "Kelishdik, aka, yaxshi bo'lardi", dedim. So'ngra "Ketishim kerak", deya bekatga qarab yo'lga tushdim. "Qul qiynalmaganicha Xizr uchramas emish", degan maqol bor... Kamina uchun ham biror eshik yopilsa, boshqa biri ochilayotgandi. Alloh men bilan edi. Buni bilib turardim va O'ziga shukr qilardim. Hech qanday ish topolmaganimda nima bo'lardi? Sariq chaqa ham ishlolmaganimda-chi? Yoki eng yomoni, vaqt o'tgan sari o'zimga shunday savol berganimda: